# O‘ZBEK TILIDAGI FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYANING LINGVISTIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i08.026

Safarova Olima Mustafo qizi
https://orcid.org/0009-0008-1868-3571
olimasafarova06@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi farmatsevtik terminologiyaning shakllanishi, rivojlanishi hamda lingvistik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Farmatsevtik terminlarning bir ma’nolilik, aniqlik, tizimlilik, nominativlik va standartlashuv kabi asosiy semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Farmatsevtik terminologiyaning rivojlanishida ilmiy-texnik taraqqiyot, yangi dori vositalarining yaratilishi va xalqaro terminologik jarayonlarning ta’siri ham alohida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek farmatsevtik terminologiyasini tizimlashtirish, uning lingvistik tabiatini aniqlash va zamonaviy terminologik lug‘atlarni takomillashtirish uchun nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** farmatsevtik terminologiya, farmatsevtik termin, lingvistik xususiyat, semantik xususiyat, terminologik tizim, leksik qatlam, o‘zlashma terminlar, so‘z yasalishi, termin semantikasi, nominatsiya, bir ma’nolilik, terminologik standartlashuv, farmatsevtik diskurs, dori vositalari

# LINGUISTIC AND SEMANTIC FEATURES OF PHARMACEUTICAL TERMINOLOGY IN THE UZBEKISTAN LANGUAGE

Safarova Olima Mustafa qizi
https://orcid.org/0009-0008-1868-3571
olimasafarova06@gmail.com
Bukhara State University

**Abstract:** This article analyzes the formation and development of pharmaceutical terminology in the Uzbek language, as well as its linguistic and semantic features. The main semantic characteristics of pharmaceutical terms, such as monosemy, accuracy, systematicity, nominative function, and standardization, are examined. Particular attention is paid to the influence of scientific and technological progress, the development of new medicines, and international terminological processes on the development of pharmaceutical terminology. The results of the study are of theoretical


(cc) BY

and practical significance for systematizing Uzbek pharmaceutical terminology, determining its linguistic nature, and improving modern terminological dictionaries.

**Keywords:** pharmaceutical terminology, pharmaceutical term, linguistic features, semantic features, terminological system, lexical layer, borrowed terms, word formation, term semantics, nomination, monosemy, terminological standardization, pharmaceutical discourse, medicines

O‘zbek tilidagi farmatsevtik terminologiya tibbiyot va farmatsevtika sohalarida ilmiy-professional kommunikatsiyani ta’minlovchi muhim terminologik tizimlardan biri hisoblanadi. Mazkur terminologik qatlam dori vositalari, ularning tarkibi, farmakologik xususiyatlari, ta’sir mexanizmi, qo‘llanish sohasi, dozalash tartibi, dori shakllari hamda davolash jarayoniga oid maxsus tushunchalarni nomlash va ifodalashga xizmat qiladi. Shu jihatdan farmatsevtik terminlar muayyan predmet, hodisa va jarayonlarning nomi sifatida namoyon bo‘lish bilan birga, farmatsevt, shifokor, tibbiyot xodimi hamda bemor o‘rtasidagi professional va amaliy kommunikatsiyaning mazmuniy aniqligini ta’minlovchi asosiy lingvistik birliklardan biridir.

Terminologiyaning mohiyati haqida fikr yuritganda, avvalo, terminning umumxalq leksikasidan farqli xususiyatlariga e’tibor qaratish lozim. Termin ta’rifi xususida ilmiy adabiyotlarda ko‘pdan-ko‘p mulohazalar bildirilgan. Deyarli barcha ta’riflarda termin maxsus ilmiy-texnikaviy tushunchani ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi tarzida tavsiflanadi. O.Vinokuming fikricha, termin - har doim aniq va ravshan. Terminlar sistemasi tili ongli shakllantiriladi. Zero, termin o‘z-o‘zidan, stixiyali tarzda paydo boim aydi, balki zarurligi, jamiyatda unga ehtiyoj mavjudligi bois yaratiladi.[1] Bu qarash farmatsevtik terminologiyaga ham bevosita daxldor bo‘lib, unda muayyan dori vositasi, uning tarkibiy qismi yoki farmakologik ta’sirini ifodalovchi terminning mazmuniy chegarasi imkon qadar aniq belgilanishini talab etadi.

Termin so‘zini turlicha tushunish mavjud. Chunonchi, mantiqshunoslar (logiklar) uchun termin bu aniq obyektga tegishli tavsif (yoki tavsiflar) yig‘indisini nazarda tutuvchi va unda tatbiq etiluvchi so‘z hisoblanadi. Har qanday tildagi istalgan so‘z termin bo‘lishi mumkin.[2]

J. Sagerning terminologiya haqidagi qarashlarida esa terminlarning maxsus bilim va professional kommunikatsiya bilan uzviy aloqasi alohida ko‘zga tashlanadi. Uning yondashuviga ko‘ra, terminlar muayyan fan yoki kasbiy faoliyat doirasidagi tushunchalarni ifodalash va ular o‘rtasidagi bilimiy munosabatlarni kommunikativ jihatdan yetkazish vositasidir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, o‘zbek tilidagi farmatsevtik terminlar ham farmatsevtika sohasiga oid maxsus bilimlarni verbal shaklda ifodalovchi birliklar sifatida baholanishi mumkin.[3]


(cc) BY

O‘zbek farmatsevtik terminologiyasining lingvistik xususiyatlari, eng avvalo, uning tarkibiy tuzilishi, so‘z yasalishi, o‘zlashma birliklarning faol qo‘llanishi, terminologik birikmalarning shakllanishi va semantik tizimining rivojlanishi bilan belgilanadi. [4] Farmatsevtik terminlar tarkibida o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllangan birliklar bilan bir qatorda lotin, yunon, rus va ingliz tillari orqali kirib kelgan xalqaro terminlar ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, *dori vositasi, dorivor modda, faol modda, dori shakli, tabletka, kapsula, eritma, suspenziya, sirop, maz, surtma, kukun, in’eksiya, antibiotik, antiseptik, analgetik, antipiretik, antihistamin* kabi birliklar farmatsevtik terminologiyaning asosiy qatlamini tashkil etadi.

Mazkur terminlarning lingvistik tabiatida o‘zlashma terminlarning salmoqli ekanligi alohida e’tiborga loyiq. Masalan, *antibiotik* termini yunoncha *anti* - “qarshi” va *bios* - “hayot” komponentlari asosida shakllangan xalqaro terminologik birlik bo‘lib, zamonaviy o‘zbek farmatsevtik terminologiyasida faol qo‘llanadi. *Analgetik* termini og‘riqni kamaytiruvchi dori vositalarini, *antipiretik* termini tana haroratini pasaytiruvchi vositalarni, *antiseptik* esa mikroorganizmlarning rivojlanishini cheklash yoki yo‘q qilishga xizmat qiluvchi vositalarni ifodalaydi. Mazkur birliklarda terminning shakliy tuzilishi bilan uning maxsus semantik mazmuni o‘rtasidagi munosabat yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbek farmatsevtik terminologiyasining muhim lingvistik xususiyatlaridan yana biri terminlarning sodda va murakkab tuzilishga ega ekanligidir. Sodda terminlarga *tabletka, kapsula, antibiotik, analgetik, sirop, eritma* kabi birliklarni kiritish mumkin. Murakkab terminologik birikmalar esa bir nechta komponentning sintaktik munosabati asosida shakllanadi: *faol farmatsevtik modda, og‘iz orqali qabul qilinadigan dori vositasi, qon bosimini pasaytiruvchi dori, uzoq muddat ta’sir qiluvchi preparat, steril inyeksiya eritmasi* kabi birikmalar shular jumlasidandir. Bunday terminologik birikmalar tushunchaning muayyan belgisini izohlash orqali uning semantik chegarasini yanada aniqlashtiradi.

Terminologik birliklarning semantik xususiyatlarini o‘rganishda termin va tushuncha o‘rtasidagi munosabat muhim ahamiyat kasb etadi. V. A. Tatarinov terminologik birliklarni maxsus soha tushunchalarini ifodalovchi va muayyan terminologik tizim doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi birliklar sifatida baholaydi. Bu yondashuvdan kelib chiqib, farmatsevtik terminning semantik mazmuni uning umumiy lug‘aviy ma’nosi bilan emas, balki farmatsevtika sohasidagi muayyan tushunchani ifodalash xususiyati bilan belgilanadi.[3]

Masalan, *eritma* termini umumiy tilda “eritilgan modda hosil qilgan suyuqlik” mazmuniga yaqin tushunilishi mumkin. Farmatsevtik diskursda esa u dori moddasining ma’lum konsentratsiyada erituvchida eritilishi natijasida hosil bo‘lgan dori shaklini anglatadi. Xuddi shuningdek, *suspenziya* umumiy nutqda suyuqlik tarkibidagi zarrachalar bilan bog‘liq fizik holatni anglatishi mumkin bo‘lsa,


(cc) BY

farmatsevtik termin sifatida ma’lum qattiq zarrachalarning suyuq muhitda tarqalishidan hosil bo‘lgan dori shaklini bildiradi. Demak, terminning semantik mazmuni uning qo‘llanish sohasi bilan chambarchas bog‘liq holda konkretlashadi.

Farmatsevtik terminlarning semantik tizimida sinonimiya, polisemiya, antonimiya, giponimiya va giperonimiya kabi munosabatlar ham kuzatiladi. Biroq terminologik tizimda bunday munosabatlarning namoyon bo‘lishi umumxalq leksikasidagidan farqli xususiyatlarga ega. Masalan, *dori vositasi* kengroq tushunchani ifodalovchi birlik sifatida *tabletka, kapsula, eritma, sirop, kukun* kabi birliklarni o‘z ichiga oladi. Bu holatda *dori vositasi* giperonimik, qolgan birliklar esa giponimik munosabatda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, *antibiotik* tushunchasi ostida turli faol moddalarga asoslangan dori vositalari mavjud bo‘lib, bu terminologik tizimning ierarxik semantik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Farmatsevtik terminologiyada semantik aniqlik bilan bir qatorda terminning funksional xususiyati ham muhimdir. Termin faqat tushunchani nomlab qolmasdan, professional kommunikatsiya jarayonida muayyan axborotni ixcham va aniq yetkazish imkonini beradi. Masalan, “*paratsetamol*”, “*ibuprofen*”, “*amoksitsillin*”, “*antiseptik*” kabi terminlardan foydalanish orqali mutaxassislar uzoq izoh talab qiladigan farmakologik tushunchalarni qisqa shaklda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli terminologik tizim professional nutqning iqtisodiyligi va axborot sig‘imini oshiradi.

M. T. Cabré terminologiyani faqat terminlar majmui sifatida emas, balki maxsus bilimlarni ifodalash va kommunikatsiya qilish bilan bog‘liq ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘radi. Uning kommunikativ nazariyasida terminlarning ma’nosi ularning muayyan professional va kommunikativ vaziyatdagi qo‘llanishi bilan ham bog‘lanadi. Ushbu nuqtayi nazar o‘zbek farmatsevtik terminologiyasini o‘rganishda ham muhim metodologik asos bo‘la oladi. [4] Chunki *doza, retsept, preparat, faol modda, nojo‘ya ta’sir, qo‘llash usuli* kabi birliklarning mazmuni ularning qaysi kommunikativ vaziyatda ishlatilishiga qarab yanada konkretlashadi.

O‘zbek tilidagi farmatsevtik terminologiyada semantik guruhlanish ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: 1) dori vositalari nomlari - *antibiotik, analgetik, antipiretik*; 2) dori shakllari - *tabletka, kapsula, sirop, eritma, suspenziya, maz*; 3) dori tarkibiy qismlarini ifodalovchi terminlar - *faol modda, yordamchi modda, konservant*; 4) farmakologik ta’sirni ifodalovchi birliklar - *og‘riq qoldiruvchi, yallig‘lanishga qarshi, allergiyaga qarshi, isitma tushiruvchi*; 5) dori vositasini qo‘llash jarayoniga oid birliklar - *dozalash, qabul qilish, inyeksiya, qo‘llash usuli*; 6) nojo‘ya ta’sir va xavfsizlik bilan bog‘liq terminlar - *nojo‘ya ta’sir, allergik reaksiya, qarshi ko‘rsatma, dozani oshirib yuborish*.

Shuningdek, farmatsevtik terminologiyada o‘zbek tilining so‘z yasash imkoniyatlari asosida hosil qilingan terminlar ham mavjud. Masalan, *og‘riq*


(cc) BY

*qoldiruvchi, isitma tushiruvchi, yallig‘lanishga qarshi, mikroblarga qarshi, tinchlantiruvchi* kabi birliklarda o‘zbek tilining affiksal va analitik so‘z yasash imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Bunday birliklar xalq uchun tushunarli bo‘lishi bilan birga, farmatsevtik tushunchalarni milliy til vositalari orqali ifodalash imkonini beradi.

Farmatsevtik terminologiyaning yana bir muhim jihati uning tibbiy terminologiya bilan uzviy aloqadorligidir. Chunki dori vositasining nomlanishi, uning farmakologik ta’siri, kasallikni davolashdagi o‘rni va qo‘llash tartibi tibbiy tushunchalar bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli farmatsevtik terminologiyani tibbiy terminologiyadan mutlaqo ajratilgan holda o‘rganish mumkin emas. Ular o‘zaro semantik va funksional jihatdan tutashgan terminologik tizimlarni tashkil etadi.

Farmatsevtik diskurs esa mazkur terminologik birliklarning real kommunikativ jarayonda qo‘llanishini namoyon etadi. Ushbu diskurs doirasida mutaxassis-mutaxassis, mutaxassis-bemor hamda farmatsevt-iste’molchi kommunikatsiyasi alohida o‘rin egallaydi.[5] Masalan, mutaxassislar o‘rtasidagi kommunikatsiyada *farmakokinetika, bioavailability, doza, faol modda, kontrendikatsiya* kabi maxsus terminlarning faol qo‘llanishi tabiiy holat bo‘lsa, farmatsevt va bemor o‘rtasidagi muloqotda ayni tushunchalar ko‘pincha sodda va izohli shaklda ifodalanadi. Masalan, *“antipiretik preparat”* o‘rniga bemor uchun *“isitma tushiruvchi dori”*, *“analgetik”* o‘rniga *“og‘riq qoldiruvchi dori”* shaklining qo‘llanishi kommunikativ moslashuvni ta’minlaydi.

Demak, o‘zbek tilidagi farmatsevtik terminologiya o‘zining lingvistik tuzilishi, semantik tizimi, termin yasash imkoniyatlari, o‘zlashma birliklarning mavjudligi va professional kommunikatsiyadagi funksiyasi bilan o‘ziga xos terminologik qatlamni tashkil etadi. Uning semantik xususiyatlari termin-tushuncha munosabati, terminlarning ma’noviy guruhlarga birlashuvi, giperonimik-giponimik munosabatlar, sinonimik variantlar va sohaga xos ma’no konkretlashuvi orqali namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek farmatsevtik terminologiyasini lingvistik va semantik jihatdan tadqiq etish nafaqat farmatsevtika sohasidagi maxsus birliklarning strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, balki ularning shakllanish manbalari, ma’no taraqqiyoti, terminologik tizimdagi o‘rni va professional kommunikatsiyadagi funksional imkoniyatlarini belgilashga ham xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar o‘zbek tilining zamonaviy ilmiy terminologiyasini takomillashtirish, farmatsevtik terminlarning izchil me’yorlashuvi va ularning lug‘aviy bazasini boyitish uchun ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Винокур Г. О. Некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды. Сборник статей по языкознанию. - М., 1961. - С. 3-10.


(cc) BY

2. Dadaboyev H. O‘zbek Terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020

3. Israilova M.N. Lotin tili va tibbiy farmatsevtik terminologiya asoslari. - Toshkent: Barkamol fayz mediya, -2016. 193b

4. Герд А. С. Значение термина и научное знание // Научно-техническая информация. Серия 2. - М., 1991. - № 10. - С. 124.

5. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlami. -Toshkent: Fan, 1985.B-13-18

6. Abdulxairova F. Tibbiyot terminlarini metaforik modellashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. - Toshkent: Bookmany print, 2024. - 80 b.


(cc) BY